

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZOYEVA ISTAT ELMURODOVNA

**TO‘DAKO‘L – QUYIMOZOR SUV OMBORLARI VA UNING ATROFI
LANDSHAFTLARNING EKOLOGIK HOLATI**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
geographical sciences**

Mirzoyeva Istat Elmurodovna

To‘dako‘l – Quyimozor suv omborlari va uning atrofi landshaftlarining
ekologik holati3

Мирзоева Истат Элмуродовна

Экологическое состояние водохранилищ Тудакуль – Куйимазар и
окружающих их ландшафтов.....23

Mirzoyeva Istat Elmurodovna

Ecological status of Tudakul – Kuuimazar reservoirs and its surrounding
landscapes43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZOYEVA ISTAT ELMURODOVNA

**TO‘DAKO‘L – QUYIMOZOR SUV OMBORLARI VA UNING ATROFI
LANDSHAFTLARINING EKOLOGIK HOLATI**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Gr250 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya Qo'qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portal (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qo'ziboyeva Ozodxon Mahmudovna
geografiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Urazbayev Abdukarim Kendirbayevich
geografiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdullayev Botirjon Dadajonovich
geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qirg'iziston Respublikasi O'sh davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "28" fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-16-36, faks: (+99866) 239-11-40; e-mail: ik-geografiya2019@mail.ru). Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Geografiya va ekologiya fakulteti.

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (15 raqami bilan ro'yxatga olingan.). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy Tel.: (+99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "17"-fevral kuni tarqatildi.
(2025-yil "4"-fevraldagi 3-raqamli reyestr bayonnomasi)



S.B.Abbasov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
g.f.d., professor

B.A.Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
g.f.f.d. (PhD), dotsent

Q.S.Yarashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
g.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tajribasida daryolar oqimini suv omborlari va yirik suv olish inshootlari yordamida boshqarish suv resurslaridan kompleks foydalanishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanmoqda. Tarixiy jarayonlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, suv obyektlari insoniyat taraqqiyotida muhim rol o'ynab kelgan. Bir tomondan suv toshqinlari, qurg'oqchilik, daryolar, ko'llar va dengizlar rejimining o'zgarishi halokatlar va katta ijtimoiy- iqtisodiy zararlarga sabab bo'lgan bo'lsa, boshqa tomondan, suv obyektlari qishloq xo'jaligi, energetika, sanoat va iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishini ta'minlab kelmoqda. BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturida 17 ta "maqsad"lar berilgan bo'lib, shuning 6-maqsadida belgilangan "Suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash va suvning ifloslanishini oldini olish"¹ ga qaratilgan vazifalar suv omborlarining irrigatsion inshootlar va landshaftlar bilan bog'liqligi hamda rekreatsion imkoniyatlari va ulardan foydalanish masalalarini, suv omborlariga tutash landshaftlar o'zgarishini tahlil qilishni, ekologik holatini baholash va ularni monitoring qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Global iqlim o'zgarishi sharoitida qurg'oqchil mintaqadagi suv omborining tutash landshaftlar o'zgarishiga ta'sirini tadqiq qilish, ulardagi ekologik holatni baholashga, rekreatsion imkoniyatlari va ulardan foydalanish masalalarini tahlil qilishga, bioxilma-xilligini saqlashga hamda ulardan samarali foydalanishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shu munosabat bilan landshaftlar, ulardagi holat o'zgarishlarini GAT texnologiyalari, aerokosmik dala tadqiqotlari yordamida tadqiq etish, geoekologik vaziyatga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, landshaftlar barqarorligini saqlash va ulardan samarali foydalanish bo'yicha yangicha ilmiy konsepsiyalarga asoslangan keng qamrovli tadqiqotlar olib borishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, cho'llanishga qarshi kurashish, ekologik xavfsizlik va uni barqarorlashtirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada noyob obyekt sanalgan To'dako'l va Quyimozor suv omborlarining ekstremal (suv sathining ko'tarilishi va pasayishi) vaziyatlarini tahlil qilish, landshaftlar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tadqiq qilish, baholash hamda suv ombori atrofi genofondidan samarali foydalanish, ularning ekologik xavfsizligini barqarorlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"dagi PF-60-son Farmonida "Suv resurslaridan foydalanish mexanizmlarini tubdan isloh qilish, ulardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash..."² yuzasidan muhim vazifalar belgilangan. Bu borada O'zbekistondagi

¹ 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi // elektron dostup: <http://www.uz/undp/org/>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

kichik daryolar va soylar suv resurslarini ichimlik suv ta'minoti, qishloq xo'jaligi, yaylovlarni suvlantirish va boshqa maqsadlarda suv omborlaridagi suv resurslarini muhofaza qilish, bu jarayonda qo'llaniladigan usullarni takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-76-son "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 3-oktabrdagi PQ-3956-son "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitini muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni va mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VIII. "Yer haqidagi fanlar", V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Suv omborlarining atrof hududlari landshaft-ekologik holatiga ta'siri L.S.Vendrov (1955, 1964, 1976), A.B.Avakyan (1976, 1980, 1982), A.M.Nikitin (1985), K.N.Dyakonov, A.Y.Reteyum (1971), S.V.Suslov (2003) va boshqa xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Bu o'rinda O'rta Osiyoda, ayniqsa, O'zbekistonda suv resurslaridan foydalanish, suv havzalari, shu jumladan, suv omborlarining atrof landshaftlarga ta'siri hamda landshaftlarning ekologik vaziyatini baholash bo'yicha L.A.Alibekov (1990), A.N.Nigmatov (1984), F.Xikmatov (1984), S.B.Abbasov (2007), I.Q.Nazarov, X.R.Toshov (2008), Q.S.Yarashev (2018, 2022), I.X.Abdullayev (2005), V.Y.Chub (2007), N.R.Alimqulov (2024), A.Raxmatullayev (2018), A.A.Rafiqov (1972), N.T.Sabirova (2020), I.E.Karimov (2021), A.E.Sharipov (2023) va boshqa bir qator mahalliy olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Mazkur tadqiqot ishi yuqorida qayd etilgan ilmiy izlanishlardan farqli ravishda To'dako'l va Quyimozor suv omborlarining ta'siri doirasidagi landshaftlarning ekologik holatini baholash hamda zamonaviy metodlarni qo'llash yordamida landshaftlarning ekologik holati tadqiq etilganligi bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlar rejasining "Quyil Zarafshon tabiiy geografik okrugining tabiiy geografik xususiyatlari va uning geoekologik muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi To'dako'l-Quyimozor suv omborlari va ularning atrofidagi landshaftlarning ekologik holatining shakllanishi va o'zgarishini baholash, ulardan oqilona foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

suv omborlari atrofi landshaftlarining ekologik holatining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va tabiiy geografik jihatdan ilmiy asoslash;

suv omborlari atrofidagi o'simlik qoplami dinamikasini baholash hamda 1:200000 masshtabli kartasini yaratish;

hududning landshaft-ekologik holatini zamonaviy usullarda aniqlash va barqarorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

suv ombori ta'siri doirasidagi hududlarning foydalanish darajasiga ko'ra tasniflash hamda ulardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti To'dako'l-Quyimozor suv omborlari va unga yondosh hududlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti To'dako'l-Quyimozor suv omborlari va uning atrofi landshaftlarining ekologik holati hamda landshaftlar o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida dala tadqiqotlari, aerokosmik, statistik, taqqoslash, baholash, masofadan zondlash, GAT texnologiyalari, kartografik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

To'dako'l-Quyimozor suv omborlari atrofi landshaftlarining geoekologik holatini optimallashtirishda turli radiometrik diapazonlardagi kosmik suratlarni kompleks qo'llash asosida ko'p yillik o'simliklar o'zgarishi va tuproq qoplami holati aniqlangan;

suv omborlarga tutash hudud landshaftlarining o'zgarish dinamikasi masofaviy usullarni qo'llash asosida aniqlangan hamda ularning o'rta masshtabli mavzuli kartalari yaratilgan;

hududning landshaft-ekologik holati zamonaviy usullarda aniqlangan va barqarorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

cho'l landshaftlarini tasniflashning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan va yangicha tipologik-taksonomik pog'ona va birliklar tizimi tavsiya qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quydagilardan iborat:

To'dako'l-Quyimozor suv omborlari landshaftlarining ekologik holatini masofadan zondlash «Landsat» sun'iy yo'ldoshining vegetatsion indekslarini NDVI yordamida aniqlash imkoniyatlari takomillashtirilgan;

1990-, 2000-, 2010-, 2020-, 2024-yillardagi o'simlik qoplami o'zgarishlari aniqlangan;

1990-yilga nisbatan o'simlik qoplami eng kambag'allashgan davr 2010-yil ekanligi aniqlangan;

suv omborlari atrofi landshaftlaridan samarali foydalanish, geoekologik vaziyatini optimallashtirish va ekologik xavfsizligini barqarorlashtirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqot natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati markazi, Navoiy va Buxoro viloyati gidrometeorologiya boshqarmasi, Navoiy viloyati ekologiya va atrof-muhitni

muhafaza qilish boshqarmasi, Buxoro viloyati Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Buxoro viloyat boshqarmasi, Navoiy viloyati O'rmon xo'jaligi boshqarmasi statistik ma'lumotlari, Buxoro shahri "Suvoqova" boshqarmasining tashlama suvlarni analitik tahlil qilish laboratoriyasining natijalari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati suv omborlar atrofi landshaftlarini o'rganishda zamonaviy usullardan foydalanib, o'simlik va tuproq qoplami dinamik kartalarini tuzish, geoekologik holatini baholash va tasniflashning ilmiy-metodologik asoslarining takomillashganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Navoiy viloyatidagi suv omborlari va boshqa suv havzalaridan oqilona foydalanishni amalga oshirish, To'dako'l va Quyimozor suv omborlari atrofidagi landshaftlarni geoekologik tasniflash, o'zgarish darajasini aniqlash va baholash metodikasining zamonaviy usullar yordamida takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To'dako'l-Quyimozor suv omborlari va uning atrofi landshaftlarining ekologik holati bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

To'dako'l-Quyimozor suv omborining o'rta masshtabli mavzuli kartalarining hozirgi holatini optimallashtirish uchun kartografik metodlar ishlab chiqilgan va kosmik suratlar yordamida takomillashtirilgan kosmik suratlarni kompleks qo'llash tizimiga oid ilmiy natijalar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining amaliy faoliyatida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024- yil 30-avgustdagi 03-03/72-son ma'lumotnomasi). Natijada To'dako'l – Quyimozor suv omborining hozirgi holatini kartografik ta'minlashda zamonaviy usullarni keng qo'llash imkonini bergan;

To'dako'l-Quyimozor suv omborining va uning atrofi landshaftlarining ekologik holatining ma'lumotlar bazasini zamonaviy ArcGIS dasturida yaratish, ma'lumotlarni tanlash va guruhlashtirish asosida o'rta masshtabli To'dako'l-Quyimozor atrofi o'simlik qoplami dinamikasi kartalari hamda To'dako'l-Quyimozor atrofi tuproqlarining o'zgarish kartasidan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining amaliy faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 30-avgustdagi 03-03/72-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu yaratilgan kartalarning mazmunini boyitish hamda ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirish imkonini bergan;

kosmik suratlarni qayta ishlashda GAT dasturiy ta'minotlarini qo'llash asosida 1:10000 masshtabli raqamli To'dako'l-Quyimozor suv omborining kartalarini tuzish texnologiyasi asosida davlat kadastrini kartografik ta'minlashni kengaytirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining amaliy faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 30-avgustdagi 03- 03/72-son ma'lumotnomasi). Natijada To'dako'l-Quyimozor suv

ombori atrofining kartasini tuzishda joydagi obyektlarni avtomatik tarzda kosmik suratlar bo'yicha aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan Scopus ma'lumotlar bazasida mavjud ilmiy jurnallarda 1 ta maqola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, 2 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matn qismi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Suv omborlarining landshaft-ekologik holatiga ta'sirini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida landshaft-ekologik holatni tadqiq etishning nazariy va metodologik asoslari ochib berilgan.

Suv ombori to'g'onlar yordamida suvni yig'ish va saqlash uchun quriladigan sun'iy suv havzasi hisoblanadi. Suv omborlarini qurish o'lkamiz kabi qurg'oqchil hamda qishloq xo'jaligini sug'orishga asoslangan hududlarda ayniqsa zarurdir. Ko'pchilik suv omborlarni qurishda ekinzorlarni suv bilan ta'minlashdan tashqari, ulardan gidroenergetika, baliqchilikni rivojlantirish, yirik sanoat korxonalari va shaharlar suv ta'minotini yaxshilash maqsadida foydalanish ham nazarda tutiladi.

Suv omborlarining atrof hududlari landshaft-ekologik holatiga ta'siri xorijiy olimlar, jumladan, L.S.Vendrov, A.B.Avakyan, A.M.Nikitin, K.N.Dyakonov, A.Y.Reteyum, S.V.Suslov va mahalliy L.A.Alibekov, I.X.Abdullaev, V.Y.Chub, F.H.Hikmatov, X Shemuradov, E.I.Chembarisov, A.Raxmatullayev, Yo.Q.Hayitov va boshqa bir qator olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Landshaftning ekologik holati – bu ma'lum bir hududdagi tabiiy va antropogen geotizimlarning barqarorligini aks ettiruvchi kompleks ko'rsatkichdir. Landshaft-ekologik holatga shu bilan bir qatorda, tuproqlar va ularning tarkibi, tuzilishi va unumdorligi o'simliklarning o'sishi va hayvonlarning yashash sharoitlari, daryolar, ko'llar, botqoqlar va yer osti suvlarining mavjudligi va ularning sifati va ekotizimlar uchun zarur hisoblanadi. Landshaft-ekologik holatlarni tushunish tabiiy resurslarni boshqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish va hududlarni barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi.

Landshaft-ekologik holatlarning asosiy tarkibiy qismlariga hududning iqlim zonalari, suv havzalari, tog' tizimlari va boshqa geografik obyektlarga nisbatan joylashishi, organizmlarning yashash sharoitlari va ekotizimlarning tarqalishini belgilaydigan harorat, yog'ingarchilik, namlik va shamol, yer yuzasining shakli va tuzilishi, shu jumladan balandlik, qiyalik va tuproq turlari o'ziga xos o'ringa ega.

Biz tadqiqot ishida landshaftlarning ekologik holatini To'dako'l-Quyimozor suv omborlari tizimi misolida ko'rib chiqamiz. Bu suv omborlari paydo bo'lishiga ko'ra, tabiiy botiqda hosil bo'lgan, ular antropogen ko'llar hisoblanadi. Avval qayd etganimizdek: "Inson tomonidan bunyod etilgan landshaftlar ham, inson ta'siriga uchrab, qaysidir bir komponent, shu jumladan o'simlik, hayvonot olami bilan birga tubdan o'zgargan (qayta qurilgan) tabiiy majmualarni ham antropogen landshaftlar deb hisoblash mumkin". Gidrotexnik qurilishlar sayyoramizning barcha qit'alarida amalga oshiriladi. Suv omborlari har qanday darajadagi gidrotexnik va suv xo'jaligi tizimlarining asosiy elementlari hisoblanadi, chunki ular suv resurslarini tartibga solish, gidrosferani jamiyat hohlagan yo'nalishda o'zgartirishga imkon beradi.

Suv omborlarining qurilishi natijasida tabiiy landshaftlar o'zgaradi, ularning yangi tiplari paydo bo'ladi, inson tomonidan boshqariladigan gidrotexnika inshootlari (to'g'on, kanal, damba va boshqalar), suv bosishi bilan bog'liq bo'lgan gidrogen landshaftlar sho'rlangan, botqoqlashgan maydonlar, tuproq va o'simlik komponentlariga kuchli ta'sir etib, tabiiy landshaftlarning tabiiy antropogen tiplari bilan almashishi kuzatiladi.

Bugungi kunda keng qo'llanilayotgan landshaftlarning ekologik holatini kuzatishning aerokosmik metodlari mavjud. Aerokosmik metodlar landshaftlarni o'rganishda va kartalashtirishda, ular haqida aniq ma'lumotlar olishda eng zaruriy metodlardan biri hisoblanadi. Kosmik suratlar landshaft strukturasi, fatsiya va urochishelarni hamda ularning xususiyatlari bir xil emasligini aniqlab beradi. Landshaft tadqiqotlarida GIS-texnologiyani qo'llanilishi har bir hududning landshaft xilma-xilligi asosida ularning geografik imkoniyatlarini baholash uchun tabiiy komplekslarni kartografik, matematik va statistik tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. GIS asosida landshaft ma'lumotlar bazasini yaratishda dala tadqiqotlari, kartografik, aerokosmik suratlar, statistik, laboratoriya tahlillari, geografik taqqoslash natijalari, landshaft indikatorlari va boshqa materiallar zarur bo'ladi. Shu sababli, GISga asoslangan metodlar landshaft tadqiqotlarida qo'llaniladigan an'anaviy metodlar bilan bog'liq holda olib boriladi. Ammo, GISga asoslangan an'anaviy metodlardan o'zining texnologik bosqichlari bilan farq qiladi.

NDVI (Normalized difference vegetation index) – o'simliklarning normallashtirilgan farqli vegetatsion indeksi kabi bir xil ma'lumotlarni tahlil qiladi. Sun'iy yo'ldosh qurilmalari yordamida yerni masofadan turib zondlash – har xil tasvirlash uskunalari bilan jihozlangan yer, aviatsiya va kosmik transport vositalarining yer yuzini kuzatishdir. Mamlakatimiz hududlarini sun'iy yo'ldosh tasvirlari orqali monitoring qilishda eng ko'p qo'llanilgan indeks NDVI hisoblanadi. Biz tadqiqot ishimizda To'dako'l-Quyimozor suv omborlari atrofi landshaftlarining ekologik holatini o'rganishda NDVI indeksidan foydalanib

o'simlik qoplami va tuproq qoplaminig o'zgarishini aniqladik.

Dissertatsiyaning **“Suv omborlari va ulardan oqilona foydalanish masalalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida To'dako'l-Quyimozor suv omborlarining geografik o'rni, paydo bo'lish va rivojlanish tarixi, suv omborlarga tutash hududlarning tabiiy sharoiti va ularning landshaftlar shakllanishidagi o'rni, arid hududlar suv muammolarini bartaraf qilishda suv omborlarining ahamiyati, rekreastion imkoniyatlari va ulardan foydalanish masalalari yoritilgan.

O'rganilayotgan tadqiqot obyektimiz To'dako'l-Quyimozor suv omborlari atrofi hamda O'rtacho'l vohasining bir qismini o'z ichiga oladi. Tabiiy geografik nuqtai nazaridan hudud Quyi Zarafshon okrugi doirasida joylashgan, ya'ni Zarafshon tabiiy geografik okrugining janubiy-sharqiy chekkasini egallaydi. Mazkur hudud L.N.Babushkin va A.S.Hasanov (1982) bo'yicha Turon provinsiyasi Qizilqum okrugining quyi Zarafshon tumanlar guruhiga kiradi. To'dako'l suv omboriga Zarafshon daryosi va Amudaryo suvlari quyiladi. Suv omborida yig'ilgan suv Buxoro viloyatining Navoiy viloyati bilan chegaradosh tumanlari va Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanlariga yozgi sug'orish mavsumida ekin dalalarini sug'orish uchun sarflanadi. Tadqiqot obyektining umumiy maydoni 1035 km² ni tashkil etadi. Arid hududlar yog'ingarchilik yetishmasligi va yuqori bug'lanish bilan ajralib turadi, bu esa quruq sharoit va namlik yetishmasligiga olib keladi. Bunday hududlar odatda cheklangan suv resurslariga ega bo'ladi va qishloq xo'jaligi, sanoat va odamlarning umumiy ehtiyojlari uchun suv bilan ta'minlashda jiddiy muammolarga duch keladi. Quruq iqlimiy sharoit tuproq unumdorligining pasayishiga, eroziyaga, suv sathining pasayishiga va boshqa jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin.

To'dako'l-Quyimozor suv omborlari hududi cho'l, qismangina chala cho'l zonasida joylashgan. Shu sababli mahalliy suv manbalari atmosfera yog'inlarini hisobga olmaganida yo'q hisobida. Yer osti sizot va qatlamlararo suvlar turli chuqurliklarda va turlicha gidrokimyoviy tarkibga ega. Sizot suvlari qadimdan buyon qazilgan quduqlar orqali foydalanib kelingan. Bu quduqlarning ko'pchiligi To'dako'l-Quyimozor suv omborlarining qurilishi, O'rtacho'l vohasini o'zlashtirilishi hamda Amu-Buxoro mashina kanalining bunyod etilishi tufayli tashlandiq holga kelgan, hattoki ularning o'rni yo'qolgan va topografik kartalarda nomlari saqlanib qolgan.

Bugungi kunda “To'dako'l” suv ombori atrofida 4 ta dam olish maskani, fuqarolarning dala hovlilari mahalliy va xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Jumladan, mavjud loyihalarga ko'ra, To'dako'l suv ombori atrofida 1100 ta mehmon qabul qilish imkoniyatiga ega “Navoiy kon metallurgiya kombinati” davlat korxonasi tegishli “Lazurniy” dam olish maskani mavjud. Mazkur dam olish maskani yiliga o'rtacha 5-6 mingga yaqin sayyohlarni qabul qiladi. Dam olish maskani aksariyat yilning mavsumiy davrida faoliyat ko'rsatadi.

Quyimozor suv omboridan ichimlik suvi manbai sifatida foydalaniladi va muhofaza qilinadi. Suv ombori sohillari himoya zona sifatida qo'riqlanadi. Shu bois bu yerda dam olish zonalari yo'q. Faqat erkin dam oluvchilarni uchratish mumkin. Suv omborining shimoliy sohilida Kogon-Toshkent temiryo'liga yondosh

yerda “Temiryo‘lchilarning dam olish zonasi” barpo etilgan. Bu dam olish zonasi taxminan 1 gektar maydonni egallaydi, beton devorlar bilan o‘ralgan, sohil bo‘yidan zinapoyasimon ko‘tarilib turadi (1-jadval)

1-jadval

To‘dako‘l suv omborining rekreasion imkoniyatlari va ulardan foydalanish masalalarining “SWOT” tahlili

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
<ol style="list-style-type: none"> To‘dako‘l suv omborining janubiy-g‘arbiy sohilida rekreasion resurslar yaxshi rivojlangan. Yoz faslida shimoliy-sharq tomondan yoqimli shabada esib turadi. Suv omborida baliqchilik xo‘jaliklari mavjud. Ekoturizm rivojlangan. Navoiy va Buxoro viloyatlari oralig‘ida joylashgan. Suv ombor atrofida turizm infratuzilmasini rivojlantirish. 	<ol style="list-style-type: none"> To‘dako‘l suv omborining Buxoro viloyati qismida rekreasion imkoniyatlar qisman rivojlangan. Zonani ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish talab darajasida emas. To‘dako‘l va Quyimozor suv omborlari atrofidagi mavjud rekreatsiya salohiyatini baholashning tibbiy-biologik, psixologik- estetik hamda geoeologik jihatlari asoslanmagan.
Imkoniyatlari	To‘siqlar
<ol style="list-style-type: none"> Suv ombor atrofida sho‘rga chidamli daraxt turlarini ko‘paytirish. Dala o‘quv ekskursiyalarini tashkil etish. Suv omborining janubi-g‘arbiy qismi juda sayoz, sohili qum, toshdan iborat. Unda cho‘milish va dam olish uchun imkoniyatlar mavjud. Suv ombor atrofida turizm infratuzilmasini rivojlantirish 	<ol style="list-style-type: none"> Jazirama issiq, chang-to‘zonli quruq havo, suv resurslarining cheklanganligi kabi omillar ushbu hududda rekreasion noqulayliklar tug‘diradi. Dam olish zonasida transport infratuzilmasining noqulayligi. Suv ombor atrofi tuproqlarining sho‘rlanishi darajasi yuqori. Texnogen landshaftlar shakllangan, rekultivatsiyaga muhtoj.


Suv omborlari ta‘siri doirasidagi hududlarning landshaft-ekologik holatini belgilovchi tabiiy omillarga asosan litogen asosning o‘zgarishi, iqlim, tuproq, o‘simlik va hayvonot olamidagi o‘zgarishlar kiradi. Tabiatdan foydalanishning ratsional shakllaridan biri melioratsiya ishlari bo‘lib, ma’lum bo‘lishicha u, asosan, tabiiy majmualar va uning alohida komponentlari suvlar, tuproqlar, iqlim holatining sifatini yaxshilashga qaratilgandir.

Dissertatsiyaning “**Suv omborlarining, ularni geoeologik holatini baholash va kartalashtirish masalalari**” deb nomlangan uchinchi bobida arid hududlar suv mummolarini bartaraf qilishda suv omborlarining ahamiyati, suv omborlari va irrigatsiya inshootlarining atrof-muhit landshaftlariga ta‘sirini o‘rganishda zamonaviy usullardan foydalanish, suv omborlariga tutash landshaftlar

ekologik holatini baholash, To‘dako‘l-Quyimozor suv omborlari tutash hududlari landshaftlarining ekologik holatini kartalashtirish masalalari kabi bo‘limlarga ajratilib o‘rganildi.

Quyimozor suv ombori shu nomli botiqda bunyod etilgan va Zarafshondan hamda Amu-Buxoro kanali orqali Amudaryodan suv oladi. Uning maydoni 17 km², eng chuqur yeri 22,8 m, o‘rtacha chuqurligi 16,8 m, suv sig‘imi 350 mln m³ dan iborat. Quyimozor suv ombori Buxoro, Kogon, Muborak shaharlarini ichimlik suvi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Muborak gazni qayta ishlash zavodlarini texnik suv bilan hamda Buxoro viloyatining Vobkent, Peshku, Romitan, Kogon, Buxoro va Jondor tumanlarining sug‘oriladigan ekin yerlarini sug‘orish uchun sarflanadi.

To‘dako‘l suv omborining umumiy suv olish sig‘imi 1200 mln m³, foydalanish hajmi 600 mln m³, suv omborining o‘lik hajmi 600 m³. Inshootning suv chiqarish qobiliyati 50 metr kub/sekunddan iborat. To‘dako‘l suv ombori Buxoro viloyatining G‘ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Peshku, Romitan, Kogon, Buxoro, Jondor va Navoiy viloyatining Qiziltepa, Navoiy tumanlariga yozgi sug‘orish mavsumida ekin dalalarini sug‘orish uchun 60 ming gektar sug‘oriladigan yerlari uchun sarflanadi.



1-rasm. To‘dako‘l va Quyimozor suv omborlarining suv sathining o‘zgarish dinamikasi (2014-2023-yil)

Suv ombori suv yuzasidan tashqari, transpiratsiya ham bug‘lanishning sarflanishiga hissa qo‘shadi. Bunga suv ombor atrofidagi landshaft florasi ta‘sir ko‘rsatadi. Suv ombor yuzasidan bug‘lanish 89 %ga teng bo‘lsa, o‘simliklar orqali ko‘l suvining transpiratsiyasi 11 % ni tashkil qiladi. Hudud iqlimini hisobga olib aytganda, subtropik belgilarga ega bo‘lgan, keskin kontinental cho‘l iqlimiga ega.


Tabiiy namlik yetishmaydi, atmosfera yog'inlariga nisbatan mumkin bo'lgan bug'lanish (1900 mm) 15-17 marta ortiqdir. Shu bois To'dako'l va Quyimozor suv omborlari suv sathidan bir yilda tegishli ravishda 3,5 va 4,2 km³ suv har yili bug'lanib ketadi. Bu borada To'dako'l suv omborining foydalanish koeffitsiyentining pastligini qayd qilish joiz. Quyimozor suv ombori 2016 yilgacha bo'lgan davrga suv omborlarning suv sathi 231 m mutlaq balandlikdan 2022 yilda pastga (225 m mutlaq balandlik) da tushgan. To'dako'l suv ombori 2018 yil suv ombori suv sathi 222 m mutlaq balandlikdan, 2019 yilda 223 m, hozirgi kunda 225 m mutlaq balandlikka ko'tarilgan.

Har bir qurilgan suv xo'jaligi obyektining ijobiy tomonlari bo'lgani singari salbiy oqibatlari ham mavjud. Bunga yaqqol misol tariqasida To'dako'l va Quyimozor suv omborini ham keltirishimiz mumkin. Mazkur suv ombori qurilgandan keyin uning atrofidagi ta'sir zonasida landshaftlarning geofizik, geokimyoviy xususiyatlari, yashash holati, morfologik tarkibida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa, ikkilamchi sho'rlanish, namiqish, botqoqlanish ko'payishi, shamol eroziyasi "tuzli yomg'irlar" tabiatning ba'zi kerakli jarayonlarini kambag'allashuviga olib kelmoqda.

Keyingi yillarda landshaftlarning irrigatsiya va melioratsiya holati yomonlashuvi natijasida qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni bosqichma-bosqich qayta foydalanishga kiritish, yer osti suv zahiralardan samarali foydalanish, suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish hamda mavjud irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish orqali suv yo'qotilishini kamaytirish, shuningdek, bu ishlarda salohiyatli investorlar ishtirokini ta'minlash zarur. Landshaftlarni u yoki bu maqsad uchun baholashning asosiy mazmuni kishilik jamiyatining talablaridan kelib chiqqan holda landshaftlarning yaroqliligini, qulay yoki noqulayligini aniqlab berishdan iboratdir.

Suv omborlari ta'sir doirasidagi hududlarning landshaft ekologik holatini belgilovchi asosiy omillardan biri hozirgi kunda antropogen omillar hisoblanadi. Antropogen omillarning asosini esa suv omborining gidrotexnogen tizim sifatidagi faoliyati, uning sathining o'zgarishi, suv ombori atrofidagi seliteb, agrolandshaftlar, rekreatsion hududlarning shakllanishi, baliqchilik xo'jaliklari va boshqalar kiradi. O'zgarishlarning darajasi va xilma-xilligi gidrotexnik inshootning, ya'ni suv omborining xususiyatlari bilan bog'liq. Bundan tashqari, yuqorida ta'kidlanganidek, asosiy o'zgarishlar insonning ongli faoliyati, ya'ni uning suv omborlarini boshqarishi bilan bog'liq bo'lib uning o'rganilish muhiti landshaft-ekologik holat hisoblanadi.

Buxoro viloyati landshaftlarini kompleks o'rganish va tabaqalashtirishda tabiiy geografiyaga yaqin bo'lgan tarmoq fanlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar kompleks geografik izlanishlar uchun poydevor vazifasini o'tab kelgan. Bu borada ayniqsa N.A.Buskov va Ya.M.Nosirov (1960), I.Sh.Granitov (1964), Y.B.Rahmatov tomonidan Qorako'l deltasi landshaftlari (1975-1982), U.Nurov (1977-1988) Zarafshon deltasi landshaftlari dinamikasi va tabiiy resurslarini o'rgangan.



2-rasm. To'dako'l-Quyimozor suv omborlari atrofi landschaftlari kartasi.

(Karta muallif tomonidan Arc GIS dasturida yaratildi).

I. Tipik qo'ng'ir tusli sur tuproqlar va qumlardagi shoxlab ketgan shuvoq, keyrovuk, boyalich o'simlik farmatsiyali, allyuvial va qadimgi allyuvial yotqiziqli, gipsli cho'l landschaftlari;

II. Och tusli bo'z tuproqlardagi So'g'd shuvoqli landschaftlari;

III. Ko'lbo'yi sho'rxoklari va sho'rlangan yerlardagi shoxlab ketgan shuvoq, bir yillik sho'ralar, oq yer shuvoq o'simlik landschaftlari;

IV. Qo'ng'ir tusli tuproqlardagi shoxlab ketgan shuvoq, oq yer shuvog'i o'simlik formatsiyali, chag'ir toshli cho'l landschaftlari;

V. Qumlardagi juzg'un, qorasaksovil, quyonsuyak o'simlik landschaftlari;

VI. Och tusli bo'z tuproqlardagi shoxlab ketgan shuvoq efemer va efemeroid o'simlik landschaftlari;

VII. Sug'oriladigan yerlar va seliteb landschaftlari;

To'dako'l-Quyimozor suv omborlarining landschaft xaritasi tahlil qilinganida, suv omborlarning g'arbiy qismida - antropogen landschaftlar tarqalgan bo'lib, bunda sug'oriladigan yerlar va seliteb landschaftlar, shimoliy qismida – sho'rxok landschaftlar mavjud bo'lib, tipik sho'rxoklardagi tikanakdek dag'al sochli yulg'un, qorabaroq, bir yillik sho'ralar, sarsazan o'simliklarning jamoalari tashkil etadi. Shimoliy-sharqida – tog' oldi prolyuvial, chala cho'l landschaftlarda tipik qo'ng'ir tusli sur tuproqlar, shoxlab ketgan shuvoq o'simliklari, past tog' landschaftlari, sharqiy qismida gipsli cho'l (tog'lar oldi prolyuvial), chaq'ir toshli cho'llar landschafti shakllangan. Suv omborlarning janubi-sharqida gilli cho'l landschafti, janubiy qismida qumli cho'l landschaftlari tarqalgan.

To‘dako‘l-Quyimozor suv omborlarining atrof landshaftlarining ekologik holati darajasini baholash

Ekologik holat o‘zgarish darajasi	Landshaft elementlaridagi jarayonlar	O‘zgarish bahosi, ballda
Past darajada	Cho‘llanish, tuproq yuvilishi, suv eroziyasi, o‘simliklarning siyraklashuvi	3
O‘rtacha darajada	Degradatsiya, yer osti suvlari sathining ko‘tarilishi, ikkilamchi sho‘rlanish.	4
Yuqori darajada	To‘qayzor joy tipini shakllanishi, bioxilma-xillikni ortishi, botqoqlanish, sho‘rxok botqoqlarni yuzaga kelishi, tuzli qumoq cho‘l tuproqlarni shakllanishi	5

Landshaftlarni baholash natijalari to‘g‘ri bo‘lishi uchun baholashning asosiy maqsadi aniq belgilab olingan bo‘lishi kerak. To‘dako‘l-Quyimozor suv omborlari va uning atrofi landshaftlarining ekologik holatining ta‘sir darajasini aniqlashda yanada kichik tabiiy geografik taksonomik birligidan foydalanildi va ularni urochishe tipi doirasida, suv ombor atrofida to‘rtta (1. Janubiy-g‘arbiy To‘dako‘l, 2. Janubiy-sharqiy To‘dako‘l, 3. Quyimozor suv ombori atrofi, 4. O‘rtacho‘l massivi atrofi) tayanch tadqiqot maydonlari ajratib o‘rganildi. Natijada, kichik taksonomik birliklarida ekologik holatning o‘zgarish jarayoni yuqori darajada borayotganligi aniqlandi. Urochishe tiplarini tasniflashda relyef, tuproq, o‘simlik asos qilib olindi. (2-jadval).


Suv ombor ta‘sirida atrof landshaftlarning quyidagi komponentlarida; fauna va florasining soni va turi, relyef (qirg‘oq yemirilishi), iqlim, yer osti suvlari sathi, tuproq qoplamida (avtomorf tuproqlar yarim gidromorf va gidromorf tuproqlarga almashinishi) o‘zgarishlar kuzatildi. To‘dako‘l-O‘rtacho‘l hududi o‘simliklari efemerlar va efemeroidlar bo‘lib o‘zlarining vegetatsiya (o‘shish) davrini erta bahorda boshlab, to‘liq rivojlanish siklini aprel-may oylarida tugatadi.

To‘dako‘l-Quyimozor suv omborlari atrofi landshaftlarining ekologik holatini o‘rganishda NDVI indeksidan foydalanib o‘simlik qoplami va tuproq qoplamining o‘zgarishini aniqladik.

Suv omborlariga tutash landshaftlarning o‘simlik qoplamini NDVI vegetatsiya indeksi -1 dan +1 gacha o‘zgarishi deb belgilandi va kartalarda ko‘rsatildi. Tadqiqotda, landshaftlar transformatsiyasi jarayoni NDVI o‘simliklarning kengaytirilgan vegetatsion indeksi yordamida baholandi. Chunki o‘simliklar tashqi ta‘sirga eng ta‘sirchan va tez o‘zgaruvchan landshaft komponentlaridan biri hisoblanadi. Yuqori o‘zgargan landshaftlarda o‘simliklar zichligi ham yuqori bo‘ladi va Landsat EVI to‘q yashil rangni ko‘rsatadi. Bu jarayonlarni ko‘proq O‘rtacho‘l massivi hududida landshaftlarining o‘zgarishida kuzatish mumkin.

To‘dako‘l-Quyimozor suv omborlar atrofi landshaftlarini o‘rganishi davomida o‘simlik qoplamini 1990-, 2000-, 2010-, 2020-, 2024-yillardagi o‘simlik qoplami o‘zgarishlari aniqlangan. Suv omborlar tizimining dinamik jarayonlari tahlil qilinganda, 1990-yilga nisbatan o‘simlik qoplami eng kambag‘allashgan davr 2010- yil ekanligi aniqlangan, 2020-yilga kelib o‘simlik bilan qoplangan

maydonlar nisbatan yaxshilanganligi asoslab berilgan. 2020 va 2024-yillar suv omborlari maydonining biroz qisqarishi, ularda suvning shoʻrlanishiga hamda oʻsimlik qoplaminig umumiy degradatsiyasiga sabab boʻlganini koʻrish mumkin.




3-rasm. Toʻdakoʻl-Quyimozor suv omborlari atrofi landshaftlarining ekologik holati

(1990-, 2000-, 2010-, 2020-, 2024-yillardagi oʻsimlik qoplami oʻzgarishlari kartalari. Muallif tomonidan Arc GIS dasturida NDVI kartalari yaratildi)

